TOSHKENT ZIYORATGOHLARIDAGI BITIKLAR: SO‘Z VA SAN’AT UYG‘UNLIGI

Kalbayeva Maftuna Xusanboy qizi
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
(PhD) mustaqil izlanuvchisi

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida ma’naviy hayotni yuksaltirish, tarixiy xotirani tiklash va milliy o‘zlikni anglash jarayonida muhim ijtimoiy-madaniy siljishlar yuz berdi. Ayniqsa, diniy-ma’naviy merosga bo‘lgan e’tibor sezilarli darajada oshdi. Bu jarayon, avvalo, diniy inshootlarning tiklanishi, yangi masjid va ziyoratgohlarning bunyod etilishi, mavjud maqbaralarning restavratsiya qilinishi hamda ularning me’moriy-bezak jihatdan boyitilishida o‘zining yorqin ifodasini topmoqda. Mazkur obidalarda me’morlik, naqshinkorlik, ganchkorlik, koshinkorlik kabi an’anaviy san’at turlari bilan bir qatorda, xattotlik san’ati ham muhim estetik va ma’naviy o‘ringa ega bo‘lgan san’at turi sifatida keng qo‘llanilmoqda. Xattotlik san’ati, islomiy madaniyatda, O‘zbekistonda o‘zgacha qadrlanib, Qur’oni karim oyatlari, hadisi-shariflar va tasavvufiy hikmatlarni go‘zallik bilan tasvirlash orqali diniy mazmunga ega matnlarni muqaddas joylar muhitiga mos ravishda aks ettirish imkonini beradi. Bu san’at turi nafaqat matnni bezatadi, balki uning chuqur ma’naviy mazmunini ochib berishda, muhitga ruhiy poklik, estetik uyg‘unlik baxsh etishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ziyoratgohlar-ya’ni el-yurti uchun nafi tekkan shaxslar qabrlari ustiga qurilgan maqbaralar, xonaqohlar va boshqa muqaddas qadamjolar kesimida xattotlik san’atining o‘ziga xos shakllari, uslublari, joylashuvi va bezak kompozitsiyasidagi o‘rni beqiyosdir. Mazkur bobda mustaqillik yillarida restavratsiya qilingan ziyoratgohlar misolida xattotlik

san’atining badiiy va estetik talqini, ularning turlari, uslubiy xususiyatlari, diniy mazmundagi matnlarning qanday kompozitsion joylashtirilishi, ishlatilgan yozuv turlari va bezak elementlari tahlil qilinadi. Zamonaviy diniy inshootlar va xattotlik san’ati o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni o‘rganish orqali biz nafaqat badiiy-estetik rivojlanish yo‘nalishlarini, balki o‘zbek xalqining tarixiy xotirasi, ma’naviy qadriyatlari va diniy dunyoqarashining zamonaviy aksini ham anglash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

O‘zbekiston hududida joylashgan ziyoratgohlar soni talaygina bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos tarixiy, madaniy va diniy ahamiyatga ega. Ushbu ilmiy ish doirasida Toshkent shahrida joylashgan va mustaqillik yillarida restavratsiya qilingan muqaddas qadamjolardagi xattotlik san’ati namunalarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. Poytaxt hududida 30 dan ortiq ziyoratgoh mavjud bo‘lib, ular orasidan eng mashhur va bugungi kunda ko‘p ziyorat qilinayotgan ikki obida Ko‘kaldosh madrasasi, Abulqosim madrasasi tahlil uchun tanlab olindi. **Ko‘kaldosh madrasasi** bugungi kunda o‘zining asosiy vazifasi-ma’rifat tarqatuvchi dargoh funksiyasini bajarmoqda, ayni damda bu maskan sayyohlar va barcha O‘zbekiston xalqi uchun beminnat hizmat qilmoqda. XVI asrga tegishli bo‘lgan madrasa, o‘sha davr boshqa ta’lim dargohlari singari, ham turar-joy va ta’lim yo‘nalishidagi binolardan bo‘lgan. Binoning arxitekturaviy tuzilishi to‘rtburchak bo‘lib, ikki qavatli, shakl bo‘ylab atrofini hujralar o‘rab turadi. Hovli o‘rtasi shinamgina ko‘kalamzorga aylantirilgan. Masjid juda baquvvat qurilgan, ammo yillar mobaynida yuzasiga tabiiy ofatlar tufayli tushgan zarar mustaqillik yillarida qayta ta’mirlangan.




Masjidga kiraverish bosh peshtoqi juda chuqur ravoqli bo‘lib, u ravoq ichi kichik kitobalari amaliy san’at bezagi yordamida bezatilgan. Peshtoqning ikki chetida esa guldastasimon minoralar mavjud. Bu minoralar binoning ikki qavatli arkasiga yopishtirib qurilgan. Minora yuzasida esa bezak sifatida kufiy xatida *“Alloh”*, *“Muhammad”* nomlari bitilgan. Ushbu nomlar nafaqat diniy-ma’naviy mazmunni ifodalaydi, balki umumiy bezak tizimining ajralmas kompozitsion unsuri sifatida ko‘rsatilgan. Kufiy yozuvning tanlanishi, uning qat’iy geometrik tuzilishi minoraning silindrsimon shakli bilan uyg‘unlashib, barqarorlik, sobitlik va ilohiy tartib g‘oyalarini ramziy ifodalaydi. Rang yechimida asosan ko‘k, moviy, oq va sarg‘ish-jigarrang ohanglar ustun bo‘lib, bu ranglar Sharq me’morchiligida osmon, poklik va abadiylik timsoli sifatida talqin qilinadi. Yozuv va naqsh o‘rtasidagi nisbat yaxshi topilgan, kufiy matni bezakdan ajralib turadi, ammo umumiy ornamentika bilan qarama-qarshi emas, balki u bilan ritmik va rang jihatdan uyg‘unlashgan. Natijada minora yuzasidagi bu bezakli bitik nafaqat diniy mazmunni yetkazuvchi yozuv, balki me’moriy shakl, rang va naqshning mukammal sintezi orqali yuksak badiiy-estetik qiymat kasb etgan monumental san’at asari sifatida idrok etiladi. [1.-rasm].

Masjid peshtoqi ulkan, uning yuqori qismiga Qur’oni karimning *“Fotiha”* surasi suls xatida bitilgan. Bitikning tepa qismidagi kufiy xatida bitilgan bitikda *“Mulk-Allohniki”* kalimasi takrorlanib yozilgan. [2.-rasm].



Peshtoqning ulkan miqyosi yozuvning tantanavor ohangini kuchaytirib, uni nafaqat matn, balki muqaddas mazmunni makon bilan bog‘lovchi ruhiy ramz sifatida idrok etishga imkon beradi.Yozuv oq rangda ishlanib, to‘q ko‘k va moviy fon bilan keskin, ammo nafis kontrast hosil qiladi. Epigrafik tasmaning ostida va atrofida joylashgan geometrik naqshlar esa yozuvni vizual jihatdan mustahkamlab, uni umumiy bezak tizimiga bog‘laydi. Naqshlarda ko‘pburchaklar, yulduzsimon shakllar va takrorlanuvchi ritmik elementlar ustun bo‘lib, ular cheksizlik va ilohiy tartib timsoli sifatida talqin etiladi. Xattot I.Mamatov bu bitiklarni 2005-yilgi ta’mirlashda amalga oshirgan. Madrasa bitiklar tarjimasi ham xattotning ustaxonasidan olindi.

Peshtoqning ikki chetida joylashgan kitobali hoshiyalar umumiy me’moriy kompozitsiyada chegaralovchi va yo‘naltiruvchi vazifani bajarib, markaziy yuzaning badiiy tartibini belgilab beradi. Ushbu hoshiyalar orasiga joylashtirilgan kvadrat shakldagi epigrafik kompozitsiyalar kufiy xatining qat’iy va geometrik tabiatini to‘liq namoyon etadi. Kvadrat ichiga joylashtirilgan *“Alloh – Parvardigorim”*, *“Muhammad – payg‘ambarim”* iboralari nafaqat mazmunan e’tiqod asoslarini ifodalovchi kalomiy bayon, balki shaklan ham mukammal muvozanatga ega badiiy yechimdir. [3.-rasm].




Kufiy xatning to‘g‘ri burchakli, uzlukli va labirintsimon tuzilishi kvadrat ramkaning qat’iy chegaralari bilan uyg‘unlashib, yopiq va mustahkam kompozitsiyani hosil qiladi.Rang yechimida ko‘k va moviy ohanglarning oq hamda och g‘isht rangli fon bilan uyg‘unligi yozuvni aniq ajratib ko‘rsatadi, shu bilan birga uni devor yuzasidan begonalashtirmay, umumiy bezak tizimiga singdiradi. Harflarning o‘zaro tutashuvi va ichki bo‘shliqlarning ritmik taqsimlanishi yozuvni faqat o‘qiladigan matn sifatida emas, balki mustaqil ornamental shakl sifatida idrok etishga imkon beradi. Ushbu kvadrat kitobalar peshtoqning vertikal yo‘nalishiga muvozanat kiritib, kompozitsiyaga markazlashgan sokinlik va vizual barqarorlik bag‘ishlaydi.

Peshtoqning ikki chetida joylashgan ayvoncha sifatidagi ikki qavatli arkalar tepasida qo‘llangan bezakli koshinlar me’moriy makonning badiiy ifodasini yanada boyitib, yozuv, rang va ornament o‘rtasidagi uyg‘unlikni yaqqol namoyon etadi. Arkalar yuzasidagi koshin bezaklari asosan islimiy naqshlar asosida ishlanib, ularning mayin o‘simliksimon chiziqlari to‘q ko‘k va moviy fon ustida och sariq hamda oq ranglar bilan jonlantirilgan. Ushbu naqshlar orasiga markaziy urg‘u sifatida joylashtirilgan yashil aylana ichidagi oq rangli *“Alloh”* va *“Muhammad”* nomlari kompozitsiyaning ma’naviy markazini belgilaydi. bu ranglar kontrasti yozuvni bezaklar orasida aniq ajratib ko‘rsatadi, biroq uni umumiy ornamentik muhitdan uzib qo‘ymaydi. Dumaloq shakldagi yozuv maydonlari arkalarining egri

chiziqli konturlari bilan uyg‘unlashib, umumiy kompozitsiyada ritmik takrorlanish hosil qiladi. Arkalar quyi qismida qo‘llangan yog‘ochdan ishlangan girih naqshli to‘siqlar esa koshin bezaklaridagi geometrik tartibni tabiiy material orqali davom ettiradi. [4.-rasm].



Asosiy peshtoq quyi qismida masjidga kirish eshigi bor, uning tepasida esa 1246/1831 yilda amalga oshirilgan ta’mirlashdan guvohlik beruvchi kitoba bitik saqlanib qolgan, unga atayin tegilmagan. Bu bitik nasta’liq xatida yozilib, tarixiy ma’lumotlar qoldirilgan. Bitikdagi ba’zi bir so‘zlar tushib qolgan. Tarjimasi: *O‘lim insonlarga keluvchi (narsa). Xamma kishilarning qonini ichdi ... Buni Boboxo‘ja... yozdi. Ushbu yuksak imorat tamirlandi, Usta Avaz Muxammad ibn Azim Valiyning qo‘li bilan. 1246 (1830-31 yil). Bu mukammal ta’mirni Devonbegining lashkari ...Shodmonbek ibn Jaxongirbegi qildi. Koshinchi usta Olimjon ibn Usta Salim. Koshinchining xamroxi...*[1] [5.-rasm].



Madrasa darvozasi yog‘och o‘ymakorligi san’atining yuksak namunasi sifatida ajralib turadi.Darvozaning massiv yog‘ochdan ishlanishi unga nafaqat jismoniy mustahkamlik, balki ma’naviy salobat ham baxsh etib, muqaddas ilm maskaniga

[1] Ўзбекистон обидаларидаги битиклар ТОШКЕНТ ШАҲРИ–Тошкент. UZBEKISTAN TODAY, 2016.278б.

kirish chegarasini qat’iy belgilaydi. Eshik yuzasidagi chuqur va nafis o‘ymalar islimiy va girihsimon naqshlar asosida ishlanib, tabiiy yog‘och rangining iliq ohanglari orqali bezakning tabiiyligi va sokin estetikasi ta’kidlangan. Darvoza tepasida bitik uchun ajratilgan maxsus joy hoshiya bilan chegaralanib, yozuvni umumiy bezakdan ajratgan holda uni markaziy semantik obyektga aylantiradi. Ushbu hoshiya ichida nasta’liq xatining tanlanishi bejiz emas, chunki bu yozuv uslubi o‘zining nafis, egiluvchan chiziqlari bilan yog‘och o‘ymakorligining mayin plastikasiga nihoyatda mos keladi. O‘ng tomonda *“Toho”* surasining bitilishi Qur’oni karim oyatlarining ruhiy chuqurligini ifodalab, chap tomonga o‘yib yozilgan hadis esa islom ta’limotining axloqiy-me’yoriy jihatlarini yodga soladi. [6.-rasm].





Shu tariqa yozuvlar mazmunan ham, kompozitsion jihatdan ham o‘zaro muvozanat hosil qiladi. Bitikning gorizontal joylashuvi eshikning vertikal konstruksiyasi bilan uyg‘unlashib, umumiy kompozitsiyaga barqarorlik va vazminlik bag‘ishlaydi. O‘ng tomon bitik tarjimasi: *Alloh taolo aytdi: “Ey Rabbim! Menga ilmni ziyoda et!”* Chap tomon bitik tarjimasi: *Alloh kimga yaxshilikni xohlasa, uni dinda faqih qilib qo‘yadi.*[2] [7.-rasm].

[2] I. Mamatov. xattot / ijodiy uchrashuvdan.Toshkent, 18.04.2024.




Binoga kirish qismida markazda qad rostlagan ichki kichik peshtoq kompozitsion va ma’naviy markaz vazifasini bajaradi hamda uning yuqori qismiga joylashtirilgan epigrafik bezak bu markaziylikni yanada kuchaytiradi. Peshtoq yuzasida yirik suls xatida Qur’oni karimning *“Alaq”* surasi 1-5-oyatlarining bitilishi mazmunan ilm, o‘qish va idrok g‘oyalarini ifodalab, madrasa muhitining asosiy maqsadi bilan bevosita uyg‘unlashadi. Oq rangda ishlangan suls yozuvining ravon, cho‘zma va baland harflari to‘q ko‘k fon bilan kuchli, ammo muvozanatli kontrast hosil qilib, bitikni masofadan ham aniq o‘qiladigan ko‘rinishga keltiradi. [8.-rasm].



Bitikning tepa qismida joylashgan sariq rangli kufiy xatida *“Baqara”* surasining 115-oyati yozilishi esa mazkur epigrafik yechimga ikkilamchi, biroq mazmunan muhim qatlam qo‘shadi. Sariq rangning tanlanishi nur, hikmat va muqaddaslik timsoli sifatida talqin etilib, ko‘k fon ustida yozuvni yanada ta’kidlaydi.


Asosiy peshtoq orqa tomonidagi kitoba joyida faqat amaliy san’at bezagini ko‘rishimiz mumkin. Koshinkorlik uslubida bezatilgan. Madrasa hovlisida joylashgan ravoqlar tepasidagi amaliy san’at bezaklari hozirgi kunga kelib sezilarli darajada zarar ko‘rgan. Mazkur bezaklar 2005-yilda amalga oshirilgan ta’mirlash ishlari jarayonida yangilangan bo‘lib, ularning xizmat muddati taxminan o‘n yilni

tashkil etgani kuzatiladi, buni mubolag‘asiz ta’kidlash mumkin.



Vaqt o‘tishi, tabiiy-iqlimiy omillar hamda ta’mirlash jarayonida qo‘llangan material va texnologiyalarning yetarli darajada uzoq muddatga mo‘ljallanmaganligi natijasida bezaklarning saqlanish holati bugungi kunda qoniqarsiz ahvolga kelgan. Shuningdek, madrasa hududida hali ham ta’mirlash va restavratsiya ishlarini talab etadigan burchaklar hamda me’moriy qismlar talaygina bo‘lib, ular yodgorlikning tarixiy-badiiy qiyofasini saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetkazish nuqtai nazaridan ilmiy asoslangan, kompleks restavratsiya choralarini amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Toshkent shahrining yana bir turistlar qadami uzilmaydigan maskani bu **Abulqosim Eshon madrasasi** hisoblanadi. Bu madrasa ham juda katta tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, XVIII-XIX asr o‘rtalarida bunyod etilgan. Uning boshqa madrasalarda farqi shundaki, Toshkentdagi ikki qavatli madrasalaring eng katta hajmlisi. Shu bilan birga bu dargohda Toshkentning eng iqtidorli insonlari yetishib chiqgan, bu madrasa ilk marotaba kitob bosmachiligi va xattotlik san’ati bo‘yicha darslar olib borilgan. Bu darslarga “Shoiq” taxallusi biln tanilgan shoir va xattot asos solgan. U birinchilardan bo‘lib Alisher Navoiy asarlaridan toshbosmada nashr etish tashabbuskori bo‘lgan. 1900-yildan ushbu madrasada xattotlik asoslari, arab tili va boshqa yo‘nalishlarda darslar berib borgan. [9-rasm].

Nuragan g‘ishtlar yangilangan o‘ng tomon 2025-yil fotosi.

Madrasa qurilish shakli to‘g‘ri to‘rtburchak, bu shakl atrofini 2 qavatli qilib qurilgan binoning darslar uchun mo‘ljallangan maxsus hujralari o‘rab turadi. Binoning mahobatli bosh peshtoqi ham alohida ajratilgan. Uning ikki chet burchaklariga esa guldasta minorachalar o‘rnatilgan, bu minoralar xuddi Ko‘kaldosh kabi binoning ayvonli qismiga yopishtirib qurilgan. Kirish va chiqish yo‘lagi ham boshqa madrasalarnikidan farq qiladi.Ammo madrasasining bosh peshtog‘i hozirgi holatida bezak va xattotlik san’ati unsurlaridan xoli bo‘lib, peshtoq kompozitsiyasida bezak uchun mo‘ljallangan maxsus maydonlar bo‘sh holda saqlanib qolgan. Ushbu holat me’moriy yechimning to‘liq badiiy ifodasiga ma’lum darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Agar mazkur madrasa uchun davlat tomonidan maqsadli mablag‘ ajratilib, bo‘sh qolgan peshtoq maydonlari an’anaviy bezaklar hamda xattotlik san’ati namunalari bilan ilmiy asosda to‘ldirilsa, inshootning me’moriy-badiiy qiyofasi yanada boyigan bo‘lar edi. Bunday yondashuv nafaqat madrasa ko‘rkini ochishga xizmat qiladi, balki tarixiy binoning asl estetik go‘zalligini tiklash va uni saqlab qolish jarayonida muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lar edi. [10-rasm].



Minora gumbazchalari o‘zgartirilgan o‘ng tomon 2025-yil.

Madrasa xujralarining g‘arbiy silsilasi markazida esa Mo‘yi Muborak xonaqohi (6x6) joylashgan. Xonaqoh ichkarisi g‘arbiy devorida mehrob ochilgan. Xonaqoh darvozaxonasi-keng arkasimon ravoqli uncha baland bo‘lmagan peshtoq, peshtoqning har ikkala tomonida naqshinkor sidirg‘a arkasimon ravoqlar ham joylashgan. Eshik va ravoqlar tepasidagi to‘g‘ri burchakli frizlarda xonaqohning vazifasiga bag‘ishlangan sheriy ta’rix- xronogramma mavjud.[3] [11-rasm].





quyida turgan bitik 2025-yilgi foto.

Bu sheriy bitik nasta’liq xatida ko‘k fon yuzasiga yozilgan. So‘nggi restavratsiya paytida bitik qayta tiklandi. Tarjimasi: *Bu qanday muborak binoki, Arsh unga to‘n kiydirdi. Chunki unda saqlanar edi, Payg‘ambar (s.a.v.) ning*

[3] Яхьяев. А.Г. Самое крупное медресе Ташкента. С.8-12

muborak sochi. Tarjimasi: *Muyassar uning tarixini boshi faxrga to‘lib aytdi: “Payg‘ambarning muborak sochi (saqlanadigan) ulug‘ go‘sha”.* [4]



So‘nggi satr madrasa qurilishi yashiringan xronogramma hisoblanadi. Bugungi kungacha bo‘lgan restavratsiyalar davrida madrasadagi qo‘shimcha imoratlar olib tashlandi. Binodagi ayrim nurab qolgan joylari g‘ishtlar bilan terildi. Madrasa bosh peshtoqiga yopishib ketgan minoralarning gumbazchalariga metal parchinlar qoplandi. Deraza darchalariga ganch va g‘ishtin panjaralar yasaldi. Ikkinchi qavatdagi naqshlar solingan panjaralari bo‘lgan yog‘och pillapoyalar bilan to‘sib qo‘yildi.[5] [12-rasm].



Rasmda xonaqohning orqa tomoni, madrasaning orqa tomon eshigi hamda madrasa hovlisi.

[4]Ўзбекистон обидаларидаги битиклар ТОШКЕНТ ШАҲРИ–Тошкент. UZBEKISTAN TODAY, 2016. 387б.
[5] Ўзбекистон обидаларидаги битиклар ТОШКЕНТ ШАҲРИ–Тошкент. UZBEKISTAN TODAY, 2016. 381б.

Xulosa qilib aytganda, ziyoratgohlarda xattotlik san’atining qo‘llanilishi islom san’ati hamda ruhiy-ma’naviy tafakkurning uzviy birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Epigrafik bitiklar bu inshootlarda nafaqat bezak vazifasini bajaradi, balki ilohiy kalom orqali makonga muqaddaslik, ma’naviy mazmun va ramziy chuqurlik baxsh etadi. Xattotlik asarlari orqali xalqning diniy e’tiqodi, estetik qarashlari va tarixiy xotirasi vizual shaklda mujassamlanib, avloddan avlodga uzluksiz tarzda yetkazib kelinadi. Shu bois ziyoratgohlarni ilmiy jihatdan o‘rganishda xattotlik namunalari alohida ahamiyat kasb etib, ularning mazmuni, yozuv uslubi, badiiy ifodasi va me’moriy muhit bilan o‘zaro uyg‘unligini tahlil qilish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bunday tadqiqotlar nafaqat yodgorliklarning badiiy-estetik qimmatini ochib beradi, balki islom madaniyati va milliy san’at an’analarining tarixiy taraqqiyotini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон обидаларидаги битиклар ТОШКЕНТ ШАҲРИ–Тошкент. UZBEKISTAN TODAY, 2016.
2. Яхьяев. А.Г. Самое крупное медресе Ташкента. –Тошкент. 2010.
3. Burckhardt T. Art of Islam: Language and Meaning. World of Islam Festival Publishing Company. London, 1976.